

MA'LUMOTNOMA

Xorazm viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini mudiri, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Vaisov Azad Xasanovich tomonidan 2024-yilda nashr qilingan "O'zbekiston tarixi" fanidan mustaqillik yillari davrini o'rganish bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etish yuzasidan kasbiy qayta tayyorlash kurslarining tarix yo'nalishi tinlovchilari uchun uslubiy qo'llanmasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 17-oktabrdagi 321-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston tarixi" fan dasturi asosida tarix fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o'quv dasturi va tayanch o'uv rejasiga mos holda ishlab chiqilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanmadan tarix fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kurslarining ma'ruza va amaliy dars mashg'ulotlarida keng fodalanish mumkin.

**O'quv va metodik ishlar bo'yicha
direktor orinbosari:**



J.Artikov

**XORAZM VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**



**“O‘ZBEKISTON TARIXI” FANIDAN MUSTAQILLIK YILLARI
DAVRINI O‘RGANISH BO‘YICHA MUSTAQIL TA‘LIMNI
TASHKIL ETISH YUZASIDAN KASBIY QAYTA
TAYYORLASH KURSLARINING TARIX YO‘NALISHI
TINLOVCHILARI UCHUN**

USLUBIY QO‘LLANMA



Urganch – 2024

“O‘ZBEKISTON TARIXI” FANIDAN MUSTAQILLIK YILLARI
DAVRINI O‘RGANISH BO‘YICHA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL
ETISH YUZASIDAN KASBIY QAYTA TAYYORLASH KURSLARINING
TARIX YO‘NALISHI TINLOVCHILARI UCHUN

USLUBIY QO‘LLANMA

V-77

Vaisov, Azad.

O'zbekiston tarixi" fanidan mustaqillik yillari davri o'rganish bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etish yuzasidan kasbiy qayta tayyorlash kurslari uchun [Mam].- Uslubiy qo'llanma / A.V. Vaisov. - Urganch: "Xorazm" nashriyoti, 2024. - 48 b.

Tuzuvchi:

Vaisov Azad Xasanovich

Mas'ul muharrir:

Xusanbekova Gulchira Mavlanbekovna – "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi i.f.n., dotsent

Taqrizchilar:

Qurbanova Dilrabo Sheripboyevna – "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi dotsenti, PhD.

Yusupov Axmedjon Shonazarovich – Urdu "Tarix" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.

Uslubu uslubiy qo'llanma maktabgacha va maktab ta'limi tizimida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tarix yo'nalishi tinlovchilarining kasbiy faoliyatida mustaqil ta'limni o'rganish va o'rganish maqsadida tayyorlandi.

Uslubiy qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 17-oktabrdagi 321-son buyrug'i asosidagi tarix fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namanaviy o'quv dasturi va tayanch o'quv rejasiga mos holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanma Xorazm viloyati pedagoglari yangi metodikalariga o'rganish milliy markazining 2023-yil 29-sentabrda 7-sonli ilmiy-metodik kengash yig'ilishi qaroriga asosan nashrga tayyirlanib chiqilgan.

ISBN 978-9910-9337-4-5

© Azad Vaisov. "O'zbekiston tarixi" fanidan mustaqillik yillari davri o'rganish bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etish yuzasidan kasbiy qayta tayyorlash kurslari uchun"

© "Xorazm" nashriyoti, 2024

SO'Z BOSHI

Mustaqillik yillarida Yangi O'zbekistonda tarixni xolis, haqiqoniy yaratish va o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Bu borada mamlakatimizda muayyan maqsadlarga yo'naltirilgan tarixiy ta'limiy siyosatining amalga oshirilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 60-sonli Farmonida belgilangan "O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish" to'g'risidagi 77-maqsdida tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ijrosini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shu sababli "O'zbekiston tarixi" muammolarini tadqiq etish, tarixni o'rganishga yangicha yondashuv bu fanni o'qitish uslubiyatini va O'zbekiston tarixi bo'yicha yangi darsliklarni yaratish masalasini sifat jihatidan tamoman yangi va jiddiy pog'onaga ko'tarish tarixchilar oldidagi asosiy vazifalardandir.

Mazkur qo'llanma umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yilgan umumiy malaka talablariidan kelib chiqib, kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tarix yo'nalishi tinlovchilarining mustaqil ta'lim bo'yicha kasbiy faoliyatini muayyan darajada takomillashiga xizmat qiladi.

Uslubiy qo'llanma pedagoglarni yangi metodikalariga o'rganish milliy makazlarining qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tarix yo'nalishi tinlovchilari uchun "O'zbekiston tarixi" fanidan mustaqillik yillari davri mustaqil ta'lim asosida o'rganishni, respublikada olib borilgan barcha sohalaridagi keng qamrovli islohotlardan o'z vaqtida xabardor bo'lish hamda islohotlar jarayonida faol ishtirok etib, yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

"O'zbekiston tarixi" fani o'qitishidagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotning ahvoli, rivojlanishi xususiyatlari va tanazzulning sabablari hamda oqibatlarini o'rganadi, ularidan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ta'biyatlashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Yuksak malakali mutaxassislarni talab darajasida tayyorlanishi, tinglovchilarni tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rganitilishi ta'minlanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda "Mustaqil ta'lim olish yakkala tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi"¹ deb belgilab qo'yilgan. Hozirgi kunda maktabgacha va maktab ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash, ayniqsa qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida tinglovchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish bosh maqsad bo'lib qolmoqda.

"O'zbekiston tarixi" fanidan mustaqillik yillari davrini o'rganish bo'yicha mustaqil ta'lim olishning maqsadi tarixiy voqea-hodisalar jarayonlarning murakkabliklari va ularning o'ziga xos jihatlarini chuqur anglash va tarixiy xotirani qadrlash, rivojlantirishdir. Bu tinglovchilarni tanqidiy fikrlashga, muammoli savollarga javob topishlariga, o'limish va hozirgi kun o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish vazifasini yuklaydi.

"MOODLE" TIZIMIDA TINGLOVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rganish milliy markazlaridagi an'anaviy malaka oshirish kurslarining o'quv jarayoni raqamli texnologiyalar asosida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasiga, pedagogik va kasbiy qayta tayyorlash kurslari uchun «Moodle» tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazilishi mustaqil ta'lim jarayonida tinglovchilarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

"Moodle" tizimi ta'limni tashkil etish jarayonida o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. "Moodle"ning ikkita asosiy tamoyili: tinglovchilarning mustaqil ishlashini ta'minlash; tinglovchilar bilimini reyting asosida baholash. Ushbu tizim dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovasion ta'lim texnologiyalari asosida olib borishni, balki tinglovchidan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabarda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rganishdan iboratdir.

Mazkur "Moodle" tizimini tinglovchining kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan.

"Moodle" tizimining joriy etilishi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarni hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda tinglovchining o'zlashtirish jarayoni tashkil etiladi. Tinglovchi yo'naltirilgan ob'yekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham tinglovchilarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratiladi.

Tinglovchilarning mustaqil ishi (TMI) – bu tinglovchining o'ziga xos o'quv faoliyati bo'lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o'qishga

¹ "Tazminu i'ytisnau"ni Karym, 5 PK-637-son, 2020-ildan 21-avgustgacha. <https://lex.uz>

qaratilishiga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan. TMI mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o'quv materialini o'zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi.

Tinglovchilarning mustaqil ishlarni tashkil qilish vakolatli ta'lim muassasasining asosiy me'yoriy hujjatlari, jumladan ishchi o'quv dasturlari (sillabus), fan modullarini mustaqil o'rganish bo'yicha talabarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

Tinglovchilarning mustaqil ishi quyidagi shakllarda joriy etilishi mumkin:

- tinglovchining bevosita o'zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari;

- an'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi tinglovchining mustaqil ishi;

Mustaqil ish turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

clarsga tayyorlanish – ma'ruza matnlari, voddkastlar, video materiallar, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari bayonlarini o'rganish;

exborot izlash – o'z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o'rganish;

FAQ (ko'p so'raladigan savollar) – o'zini qiziqitgan muammolarga o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;

Forum – fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;

Test yechish – o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliiga oid materiallarni mustahkamlash;

Nazorat ishiga tayyorlanish – fan bo'yicha kunlayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko'rish.

An'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi tinglovchining mustaqil ishlari

masala yechish – amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha berilgan masalalarni yechish va uni yozma tarzda taqdim qilish;

referat – muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kiroblar rahliyl bayon qilinadi;

kollokvium – o'quv modulining nazariy qismining o'zlashtirishini tekshirish maqsadida subbat uyushtrish;

esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

taqdimot – berilgan mavzu bo'yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish;

keys-stadi – ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatlar bo'yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo'yicha yechim izlash;

ish o'yinlari – kasbiy faoliyat jarayonlarini imitasiya qilish, sahnalashtirish, rollarni jiro qilish orqali kasbiy ko'nikmalar orttirish;

glossariy – berilgan mavzu bo'yicha atamalarini qisqa izoblash.

guruh loyihasi – 3-5 tinglovchining hamkorlikda loyiha ishini bajarishi;

kurs ishi – fan yoki fanlar majmuasi muammolari bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida bajariladigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan yozma va hisob ishlari;

kurs loyihasi – fan yoki fanlar majmuasi muammolari bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida bajariladigan, ilova qilinadigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan hisob ishlari;

• diplom loyihasi - mutaxassislik faniga oid berilgan mavzu bo'yicha bayon qilinadigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan loyihaviy ish; amaliyot hisoboti – o'tkazilgan malakaviy amaliyot (tanishuv, ishlab chiqarish, bitiruv oldi amaliyotlari) bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan hisobot;

fan to'garaklarida ishtirok etish – tinglovchining fan to'garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko'rgazmali materiallarni tayyorlashi;

tanlovlarda ishtirok etish – tinglovchining o'qituvchining ilmiy rahbarligi ostida turli tanlovlarda ishtirok etishi ("Yosh ixtirochi", tinglovchilar startap loyihalari va h.k.);

fan olimpiadalarida qatnashish – fanlar bo'yicha OTM lar o'rtasida o'tkaziladigan olimpiadalarda ishtirok etish.

Ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilish – fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha OTM, Respublika va xalqaro miqyoslarda o'tkaziladigan ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma'ruza qilish;

Ilmiy tezis va maqolalar chop etish – ilmiy anjumanlarning to'planlarida tezislari va ilmiy jurnallarda ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yichamaqolalar chop qilish;

o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish – darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, uslubiy ko'rsatma va boshqa o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etish;

Elektron shakldagi Tinglovchilarning mustaqil ishlari:

- Link – internet havolasini ochib unda keltirilgan video yoki matn shaklidagi materialni belgilangan hajmda izohlash;

- Chart – jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish.

- Q/A – masofaviy ta'lim platformasida o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish;

- Reviyew – taqdim qilingan manbaga annotatsiya yozish.

- SWOT – tinglovchi biror tushunchani cheklangan hajmda SWOT-tahlil qiladi;

- Interviyew – muammoni tadqiq qilish bo'yicha suhbat uyushtirish va uni masofaviy ta'lim platformasiga yuklash;

- Google Apps – Google Classroom platformasida hamkorlikda slaydlar, jadvallar, matnlar shaklidagi topshiriqlarni bajarish;

- Dayjest – berilgan mavzu bo'yicha internet-havolalar to'planini keltirish, kartoteka tuzish va ularni qisqacha izohlash;

- Report – tinglovchilar laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha hisobotlarini masofaviy ta'lim platformasiga kiritishadi

Tinglovchilarning mustaqil ishlarning bayoni, mavzulari, topshiriqlari, o'tkazish shakllari, soatlar hajmini ham ko'rsatgan holda fanning sillabusida fan modullari bo'yicha keltiriladi.

Tinglovchilarning mustaqil ishlarning mazmuni fanning xususiyatidan, oliy o'quv yurtining texnik imkoniyatlaridan va kutubxonaning o'quv-uslubiy ta'minlanganidan kelib chiqib aniqlanadi.

Tinglovchilarning mustaqil ishi innovasion texnologiyalarga asoslangan bo'lishi kerak. Tinglovchilarning mustaqil ishlari auditoriyadagi shakli berilgan topshiriq doirasida tinglovchilarning darslik va birlamchi manbalar, guruhli topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi tahliliy faoliyatlarini ko'zda tutadi. Tinglovchilarning mustaqil ishlari har bir fan bo'yicha butun akademik o'qish davrida sana, vaqti, auditoriyasi va turotlarni ko'rsatgan holda grafik bo'yicha o'tkaziladi. Tinglovchilarning mustaqil ishlari doirasidagi mashg'ulotlar maslahat va interfaol shakllarda bo'lishi mumkin. Ularning nisbati o'rganilayotgan fanning murakkabligi, ularni o'rganishga ajratilgan auditoriya soatlari hajmi, tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi bilan aniqlanadi.

Yakka tartibda maslahat olgan tinglovchi, o'qituvchilarning mehnatini hisobga olish bo'yicha jurnalga imzo qo'yadi. Tinglovchilarning mustaqil ishlarning sifatini kafedra nazorat qiladi, bunda tinglovchilarning mustaqil ishlarning hajmi, mazmuni va hisobot turini tasdiqlaydi, ish hajmini, ketma-ketligini va topshirish muddatlarini aniqlaydi, Tinglovchilarning mustaqil ishlarning natijalari bo'yicha tinglovchilar va o'qituvchilarning hisobotlarini ko'rib chiqadi.

TINGLOVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

"O'zbekiston tarixi" fanidan mustaqillik yillari davrini o'qitishdan maqsad - mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatish va jamiyat hayotida tinglovchining o'rni, o'zligini anglatishdan iborat.

Fanning vazifasi - mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mahnaviy hamda boshqa sohalaridagi islohotlarning mazmun-mohiyatini tinglovchilarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy e'turuni shakllantirishdan iborat.

Tinglovchilarning mustaqil o'qov faoliyati quyidagilarga qaratilishi tavsiya etiladi

- muayyan mavzular bo'yicha kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- amaliy masalalarni yechishda bilimlardan foydalanish malakalarini egallash;

- amaliy ish ko'nikma va malakalarini egallash;
- o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Tinglovchilarning kognitiv funksiyasini rivojlantirish, bilimlarni mazmunli o'zlashtirish va tushunchalarning mohiyatini tushunish, nazariy pozitsiyalar va ularning bog'liqligi va empirik faktlar uchun quyidagi vazifalar turlari qo'llaniladi:

- matnning individual fikrlarini boshqa shaklda shakllantirish, stilistik va sintaktik shakli;
- o'qilgan materialning qisqacha mazmunini shakllantirish;
- matnli tushuntirishlar bilan mos yozuvlar grafik diagrammasini tuzish;
- matnning qisqacha mazmunini tuzish.

"O'zbekiston tarixi" fanidan mustaqillik yillari davrini o'rganish bo'yicha tavsiya etilgan mustaqil ta'lim mavzulari

1. O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o'zgarishlar mazmuni va mohiyati.

2. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar.

3. Yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashda Markaziy Osiyo allomalari ilmiy merosining o'rni (allomalarning ilmiy faoliyati misolida).

4. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyati (o'zgarish va muammolar)

5. Qishloq xo'jaligi va sanoat sohasidagi o'zgarishlar.

6. O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi.

7. Milliy xavfsizlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar.

8. O'zbekistonda xalqaro reytinglardagi ko'rsatgichlarini ko'tarishning tarixiy va siyosiy ahamiyati.

9. Siyosiy-huquqiy sohadagi (10 ta) ustuvor halqaro reytinglar va ularga O'zbekistonning integratsiyalashuvi.

10. Banklar, birjalar, yirik rus va mahalliy burjuaziya.

11. O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o'zgarishlar mazmuni va mohiyati.

12. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar.

13. Yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashda Markaziy Osiyo allomalari ilmiy merosining o'rni (allomalarning ilmiy faoliyati misolida).

14. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyati (o'zgarish va muammolar).

15. Qishloq xo'jaligi va sanoat sohasidagi o'zgarishlar.

16. O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi.

17. Milliy xavfsizlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar.

18. O'zbekistonda xalqaro reytinglardagi ko'rsatgichlarini ko'tarishning tarixiy va siyosiy ahamiyati.

Adabiyotlar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar

Adabiyot bilan ishlash uni izlash, o'qish, tahlil qilish, asosiy narsani ajratib ko'rsatish, sintez qilish, asosiy narsani umumlashtirish va qayd qilishdan iborat. Tinglovchilarning adabiyotlarni izlashda mustaqillik darajasi o'qituvchining material manbalari bo'yicha tavsiyalari: majburiy va qo'shimcha adabiyotlar, shuningdek tinglovchining kerakli manbalarni mustaqil izlashi bilan belgilanadi. Adabiy manbalar bo'yicha eslatma olishda va ma'lumotni tushunish uchun o'quvchilar:

- muhim ma'lumotlarni tanlash, uni ikkinchi darajali ma'lumotlardan ajratish;
- materialni leksik qayta ishlash;
- har bir mavzu bo'yicha tushunchalar lug'atini tuzish;
- o'qilgan materialni sxematlashirish va tuzilishi;
- o'qilgan material asosida xulosalar shakllantirish.

Mustaqil o'qish darsliklar, birlamchi manbalar va eslatmalardan tinglovchilar turli ta'lim vaziyatlarida foydalanishlari mumkin: ma'ruzalarga tayyorgarlik ko'rishda, seminarlarda, amaliy mashg'ulotlarda, referatlar, kurs va tezislarini tayyorlash va yozishda, imtihon va testlarga tayyorgarlik ko'rishda.

Mustaqil ishlarning ushbu turining dolzarb uslubiy muammolaridan biri tinglovchilarni mazmunli o'qish malakalarini o'rnatish, psixologik ma'mularni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Shuning uchun tinglovchilarni o'qishning asosiy rasional usullari bilan tanishtirish muhimdir. O'qishning to'rtta asosiy usuli mavjud.

1. Kirobni tez aylanitganda, vaqti-vaqti bilan ba'zi sahifalarda qolib ketadigan o'qish - varaqlash. Bunday shartning maqsadi kirob bilan birinchi tanishish, uning mazmuni haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishdir.

2. O'qish tanlangan yoki to'liq bo'lmagan bo'lib, ular to'liq va diqqat bilan o'qiganda, lekin butun matnni emas, balki faqat ma'lum bir maqsad uchun zarur bo'lgan bo'laklarni o'qiydilar.

3. O'qish to'liq yoki uzluksiz bo'lib, ular butun matnni diqqat bilan o'qib chiqsalar, lekin u bilan biron bir maxsus ish olib bormasalar, matnning o'zida faqat qisqacha eslatmalar yoki shartli eslatmalar bilan cheklanib, puxta qaydlar tuzmaydilar (albatta, o'z kitoblari).

4. Materialni ishlab chiqish bilan o'qish, ya'ni kitob mazmunini o'rganish, bu matnni jiddiy chuqurlashtirish va o'qilgan narsaning turli xil yozuvlarini tuzishni nazarda tutadi.

Kitob mazmuni bilan tanishishning maqsadga muvofiq tartibida o'qish va ko'rish samaradorligi katta ahamiyatga ega. Bu tartib turli tinglovchilar uchun bir xil bo'lmashligi mumkin, lekin bu har doim kuzatilishi va asosiy matnni olishdan oldin tinglovchi har bir kitobdagi sarlavha sahifasi, shuningdek, jadval bilan tanishishi kerak. mazmuni (tarkib), so'zboshi (kitob), xulosa (so'nggi so'z), ma'lumotnoma apparati (agar bu elementlar kitobda mavjud bo'lsa). Yangi kitobga kirishayotganda ushbu elementlarni o'tkazib yuborish odati zararli, chunki u o'quvchini kitob mazmunini yorituvchi va matn bilan kelgusida ishlashni osonlashtiradigan ko'plab xususiyatlar haqida ma'lumot qoldiradi.

Titul varag'ida kitob muallifining ismi-sharifi, uning nomi kiritiladi, qayerda, qaysi nashriyot tomonidan va qaysi yilda nashr etilgani yoki qayta nashr etilganligi ko'rsatiladi. Mundaraja (odatda kitobning oxirida joylashtiriladi) yoki mazmuni (uni kitobning boshida, sarlavha sahifasidan keyin ham topish mumkin) butun ishlarning mazmuni haqida fikr beradi, uning tuzilishi va alohida qismlarning nisbatini belgilaydi. Muallif, kitob muharriri yoki nufuzli shaxs tomonidan yozilgan so'zboshi odatda bevosita o'quvchiga qaratilgan. Muqaddimaning vazifasi asosiy matnni tushunishni osonlashtirish, butun asarning g'oyasini ochib berish, ba'zan kitobdan qanday foydalanishni taklif qilish, bir so'z bilan aytganda, kirobni o'quvchiga taqdim etishdir. Kirish, shuningdek, asosiy matnni tushunishni osonlashtirish, o'quvchini muallif tomonidan tahlil qilingan masalalar doirasi bilan tanishtirishga qaratilgan.

Ko'pgina kitoblarda, xususan, ilmiy tadqiqotlar, to'plangan ishlar va boshqalarda o'quvchiga yordam beradigan maxsus ma'lumotnoma bazasi mavjud.

eslatmalar, sharhlar, nom va mavzu ko'rsatkichlari, foydalanilgan yoki o'rganilayotgan masala bilan bog'liq adabiyotlar ro'yxati, jadvallar, diagrammalar, chizmalar. Sarlavha sahifasini, mundarijani va so'zboshini ko'rib chiqqandan so'ng, asosiy mamni ko'zdan kechirib, ma'lumotoma materiallariga e'tibor qaragandan so'ng, yakuniy xulosaga yoki oxirgi paragraflarga qaragandan so'ng, o'quvchi, shubhasiz, asarlar haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi.

Agar ko'rilgan kitob haqidagi fikr salbiy bo'lsa yoki kitobning aniq afzalliklariga qaramay, u o'quvchining hozirgi qiziqishlari, ehtiyojlari yoki imkoniyatlariga mos kelmasa, bunday o'qish yoki ko'rish cheklanishi mumkin. Agar taqriz kitobning foydali ekanligini va o'quvchi talablarini qondirishga va'da berganligini ko'rsatsa, u ikki barobar qiziqish va e'tibor bilan o'qiladi. Biron narsani o'rganish deganda biror predmet, hodisa haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish, atroficha idrok etish, shu ishning mutaxassisi bo'lish tushuniladi. Ammo bunday o'zlashtirish darajasiga darhol erishilmaydi, diqqatni jamlagan va diqqat bilan o'qish kitobning, bo'limning, bobning mazmunini bir butun sifatida qamrab olish uchun zarurdir.

Bir butun sifatida mazmunni bunday yoritish hali aniq bilim bermaydi, balki o'qilgan narsani tushunish uchun sharoit yaratadi. Mamni tushunish butundan qismlarga o'tish, butunni aqliy ravishda semantik qismlarga ajratish, ularning biri-biri bilan va hamma narsaning ma'nosi bilan qanday bog'liqligini aniqlashni anglatadi. Bu ishlarining barchasini aqlan amalga oshirish mumkin, ammo o'qilgan va o'ylangan narsa u yoki bu shaklda mustahkamlangan bo'lsa, uning foydali ligi ko'p marta ortadi. Yozish o'qishda muhim yordamchidir, yozmasdan kitob bilan chinakam jiddiy ishlashni ta'minlash mumkin emas. Materialni to'liq o'zlashtirish uchun tinglovchi: o'qilgan materialni tushunishi va o'zlashtirishi zarurdir.

Ma'lumotoma adabiyotlari bilan ishlash.

Ensiklopediya - bu qisqartma shaklida to'plangan barcha bilimlarni o'z ichiga olgan ma'lumotoma. Chiqarilgan: ma'lumotomalar ko'plab nazariy va amaliy savollarga javob beradigan texnik, tibbiy, huquqiy ensiklopediyalar va boshqalar. Katalogdan foydalanishning mohiyati shundaki, siz kerakli

ma'lumotlarni tezda topishingiz mumkin. Ma'lumotomalar inson bilimining barcha sohaları uchun mavjud bo'lib, ular akademik va amaliydir.

Omniabop ilmiy nashrlar.

Gazeta ijtimoiy-siyosiy hayot, iqtisod va madaniyat sohalarida dolzarb axborot olish va mavjud bilimlarni to'ldirishda ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Gazetalarda rasmiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, viloyat va shahar hokimliklarining buyruqlari nashr etiladi. Shunday ekan, gazeta turli ma'lumotlarning ajralmas manbasiga aylanishi mumkin. Gazeta bilan tizimli aloqa ularning manfaatlariga mos keladigan ma'lumotlarni olishga yordam beradi. Har bir gazeta o'zining aniq vazifalarini hal qiladi va shuning uchun o'z o'quvchilar doirasiga ega.

Mustaqil ish uchun tinglovchilar quyidagi kutubxonaning axborot muhitida axborot olish malakalari algoritm va qidiruv qoidalarini bilishni talab qiladi.

Kutubxona-bibliografik bilimlar izlanishini tashkil etishni osonlashtiradi va ta'lim ufiqlarini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Insho, ijodiy topshiriq yoki hisobot uchun to'g'ri adabiyotni qanday topish mumkin? Albatta, kutubxonachi yordamga kelishi mumkin, ammo katalogdan foydalanish yaxshiroqdir. Katalog - kutubxonada mavjud bo'lgan kitoblar ro'yxati ma'lum bir tizim bo'yicha tartiblangan.

MUSTAQIL ISH MAVZULARINI YORITISHDA TAVSIYA QILINADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'lini qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiliga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. - Toshkent, 2000.
6. Erkaev A. O'zbekiston yo'li. - Toshkent: Ma'naviyat, 2011.
7. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommiyot lug'at // M. Abdullayev va boshqalar: to'ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: Sharq, 2006.
8. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlarni strategiyasi. - Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
9. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A. Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
10. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт уйчуналари, 2018.

Qo'shimcha adabiyotlar:

11. Azizxo'jaev A.A. Chin o'zbek ishi. - Toshkent, 2003.
12. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. - Toshkent: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2002.
13. Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O'zbekiston, 2005.

14. Levitin L. O'zbekiston tub burilish pallasida. - Toshkent: O'zbekiston, 2005.

15. Usmonov Q. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. - Toshkent: Moliya, 2003.

16. O'zbekiston mustaqillik yillarida. - Toshkent: O'zbekiston, 1996.

17. O'zbekiston tarixi. R.H. Murtazaevning umumiy ta'hir o'stida. - Toshkent, 2005.

18. O'zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlar: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.

19. O'limasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2006.

20. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas'ul muharrir R.H. Murtazaeva. - Toshkent: Muntaz so'z, 2010.

21. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas'ul muharrirlar: R. Abdullayev, Q. Rajabov, M. Rahimov. - Toshkent: O'zbekiston, 2019.

22. Murtazeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Muntaz so'z, 2019.

23. Yunusova X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). - Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2009.

24. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80-yillar misolida). Qo'llanma. - Toshkent: Sharq, 1999.

25. Qoraqalpog'iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.

26. G'ulomov S., Ubaydullaeva R., Ahmedov E. O'zbekiston. - Toshkent: Mehnat, 2001.

27. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A. Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.

28. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт уйчуналари, 2018.

29. O'zbekistonning eng yangi tarixi. R.H.Murtazayeva, A.A.Emetov, A.A.Odilov. - Toshkent, 2023.
30. Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O'zbekiston, 2005.
31. Usmonov Q. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. - Toshkent: Moliya, 2003.
32. O'limasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2006.
33. G'afforov Ya. Xalqaro tashkilotlar hamkorligi. 1-2-qism. - Toshkent, 2021.
34. O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir R.H.Murtazayeva. - Toshkent, 2020.
35. Maryaqubov X.H. O'zbekistonning eng yangi tarixi – Toshkent, Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2021
36. Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yangi tarixi – Toshkent, Toshkent davlat texnika universiteti, 2021
37. Haydarov O., Qoraboyev S. O'zbekistonning eng yangi tarixi – Samarqand, "Navro'z poligraf". 2022.

"O'zbekiston tarixi" jumining mustaqillik yillari davrini o'rganish bo'yicha mustaqil ish mavzularini yoritishda tavsif va qilmadigan internet resurslari

Internet resurslari. Ta'lim Internet resurslari tinglovchilarning bilim faolligini faollashtirish, ularning axborot madaniyatini, tadqiqot va tahliliy faoliyat ko'nikmalarini, shuningdek, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish uchun katta imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ishni tashkil etishda Internet resurslardan foydalanish samaradorligini belgilovchi eng muhim omil bu virtual o'quv muhitining tinglovchilarning katta qismi uchun sezilarli jozibadorligidir.

1. <http://www.ziyounet.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. <http://www.google.uz>
4. <http://www.turklib.uz>
5. <http://www.mirknig.ru>
6. <http://www.history.ru>
7. <http://www.archeologia.ru>
8. <http://www.archeo.ru>
9. <http://arc.novgorod.ru>
10. <http://www.elib.dgu.ru>

"O'ZBEKISTON TARIXI" FANIDAN MUSTAQILLIK YILLARI
DAVRINI O'RGANISH BO'YICHA
TOPSHIRIQLAR JAMLANMASI

Nel topshiriq

Mavzu: O'zbekistonning o'ziga xos istiqbol va taraqqiyot yo'li

I. O'zbekistonning Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati haqida ma'lumot to'plash (*Izoh*: to'plangan material kamida o'n betdan iborat bo'lishi, kitob va boshqa ishonchli manbalardan foydalanish lozim. **10 ballgacha baholanadi**)

II. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari" mavzusi bo'yicha taqdimot ishi (prezentatsiya) tayyorlash (*Izoh*: taqdimot ishi o'n betdan kam bo'lmasin, rasm, turli xil chizmalar va illyustratsiya -ko'rgazmali tasvirlash lozim **10 ballgacha baholanadi**)

III. Glossariylarga ta'rif bering. (*Izoh*: keltirilgan atamalarning har biriga to'g'ri javob uchun **2 ball**dan beriadi. **10 ballgacha baholanadi**)

1. Mustaqillik –
2. Mustaqillik Deklaratsiyasi –
3. O'zbek modeli –
4. Paxta ishi –
5. O'zbeklar ishi –

IV. Quyida berilgan testlarni yeching. (*Izoh*: keltirilgan test savollarning har birisiga berilgan to'g'ri javob uchun **2 ball**dan beriadi. **10 ballgacha baholanadi**).

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II sessiyasi qachon bo'lib o'tdi?
1995-yil 5-may B) 1991-yil 20-iyun C) 1998-yil 11-iyul D) 1990-yil 30-mart

2. Ushbu g'oya kimga tegishli: Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudrati bo'ladi?

A) A.Temur B) I.A.Karimov C) Sh.M.Mirziyoyev D) Z.M.Bohri

3. "O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to'g'risidagi" qonun qachon qabul qilingan? A) 1993-yil 3-mart B) 1992-yil 4-yanvar C) 1992-yil 11-fevral D) 1997-yil 6-iyul

4. Qachon Respublika mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi tuzildi? A) 1991-yil 6-sentabrda B) 1991-yil 6-oktabrda C) 1991-yil 6-noyabrda D) 1991-yil 6-dekabrda

5. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan?
A) 1993-yil sentyabr B) 1994-yil iyul C) 1992-yil may D) 1995-yil mart

V. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy, davlat tuzilishi. Xorazm viloyati (*Izoh*: O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyatining ma'muriy birlik sifatida tashkil qilingan yili, maydoni, aholisi, viloyatning ma'muriy markazi va uning tumanlari soni haqida ma'lumot yozish. Iшонchli va yangi manbalardan foydalanish lozim. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**dan beriadi. **10 ballgacha baholanadi**).

Tashkil qilingan yili: _____

Maydoni: _____

Aholisi: _____

Ma'muriy markazi: _____

Tumanlar soni: _____

Nazorat savollari:

1. O'zbekistonni mustaqillikka olib kelgan holatlar qaysilar?

2. Nega O'zbekiston o'z mustaqil taraqqiyot yo'lini tanladi?

3. Bozor munosabatlarga o'tishda yaratilgan «O'zbek modeli»ni siz qanday tushunasiz?

4. O'zbekiston Respublikasi «Mustaqillik Deklaratsiyasi» qachon qabul qilingan?

5. «Paxta ishi», «O'zbeklar ishi» yuzasidan tergov jarayonlari kimlar tomonidan olib borilgan?

№2 topshiriq

Mavzu: O'zbekistondagi siyosiy islohotlar

I. Mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilgan institutsional o'zgarishlar, O'zbekistonda davlat hokimiyatining huquqiy demokratik tizimi asoslarining barpo etilishi haqida ma'lumot to'plash (*Izoh*: to'plangan material kamida o'n betdan iborat bo'lishi, kitob va boshqa ishonchli manbalardan foydalanish lozim. **10 ballgacha baholanadi**)

II. "O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyat asoslarining shakllanishi" mavzusi bo'yicha taqdimot ishi (prezentatsiya) tayyorlash (*Izoh*: taqdimot ishi o'n betdan kam bo'lmasin, rasmiy, turli xil chizmalar va illyustratsiya - ko'rgazmali tasvirlash lozim **10 ballgacha baholanadi**)

III. Glossariylarga ta'rif bering. (*Izoh*: keltirilgan atamalar har biriga to'g'ri javob uchun **2 ball**dan beriladi. **10 ballgacha baholanadi**)

1. BMT -
2. Oliy Majlis -
3. Huquqiy demokratik tizim -
4. Fuqarolik jamiyati -
5. O'z-o'zini boshqarish -

IV. Quyida berilgan testlarni yeching. (*Izoh*: keltirilgan test savollarining har birisiga berilgan to'g'ri javob uchun **2 ball**dan beriladi. **10 ballgacha baholanadi**).

1. Qachon umumxalq referendumi o'tkazilib, O'zbekistonda ikki palatali parlamentga o'tildi? A) 2002-yilning 27-yanvar B) 2001-yil 27-iyul C) 2000-yil 19-sentabr D) 2003-yil 3-may
2. Jumlati to'ldiring: "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining hokimiyatining bo'linishi tamoyili konstitutsiya darajasida mustahkamlandi". A) 17-moddasida B) 11-moddasida C) 23-moddasida D) 12-moddasida
3. Mustaqil O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan tarixiy an'analarga, dunyo tajribalariga, o'lkaning o'ziga xos tomonlariga tayangan

22

holda jamiyatni siyosiy jihatdan tubdan isloh qilish yo'llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda nechta vazifa tanlangan edi? A) 7 ta B) 5 ta C) 2 ta D) 4 ta

4. Qachon «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risidagi qonun qabul qilingan? A) 1991-yil 4-noyabrda B) 1990-yil 29-aprelda C) 1998-yil 3-fevralda D) 1993-yilni 28-dekabrda
5. Ombudsman jahondagi qancha ortiq mamlakatda mavjud? A) 85 dan ortiq B) 100 ga yaqin C) 150 ga yaqin D) 20 dan ortiq

V. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy, davlat tuzilishi. Buxoro viloyati. (*Izoh*: O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyatining ma'muriy birlik sifatida tashkil qilingan yili, maydoni, aholisi, viloyatning ma'muriy markazi va uning tumanlari soni haqida ma'lumot yozish. Ishonchli va yangi manbalardan foydalanish lozim. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**dan beriladi. **10 ballgacha baholanadi**).

Tashkil qilingan yili : _____
Maydoni : _____
Aholisi : _____
Ma'muriy markazi : _____
Tumanlar soni : _____

Nazorat savollari:

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar zaminida nima yotadi?
2. Demokratik huquqiy davlatning asoslari nimada?
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nechta marta xalq muhokamasiga qo'yilganligi va qachon qabul qilinganligini aytib bering?
5. Mustaqillik yillarida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyati nimada ko'rinadi?

23

№3 topshiriq

Mavzu: O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar

- I. Mustaqil O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanirishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari haqida ma'lumot to'plash (*Izoh*: to'plangan material kamida o'n betdan iborat bo'lishi, kitob va boshqa ishonchli manbalardan foydalanish lozim. **10 ballgacha baholanadi**)
- II. "Bozor infatuzilmasining shakllanishi qishloq xo'jaligidagi islohotlar, sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi" mavzusi bo'yicha taqdimot ishi (prezentatsiya) tayyorlash (*Izoh*: taqdimot ishi o'n betdan kam bo'lmasin, rasn, turi xil chizmalar va illyustratsiya - ko'rgazmali tasvirlash lozim **10 ballgacha baholanadi**)
- III. Glossariylarga ta'rif bering. (*Izoh*: keltirilgan atamalar har biriga to'g'ri javob uchun **2 ball**dan beriladi. **10 ballgacha baholanadi**)
 1. Xususiy lashtirish -
 2. Ko'p ukladi iqtisod -
 3. Bozor infatuzilmasi -
 4. Makroiqtisodiy barqarorlik -
 5. Soliq tizimi -
- IV. Quyida berilgan testlarni yeching. (*Izoh*: keltirilgan test savollarining har birisiga berilgan to'g'ri javob uchun **2 ball**dan beriladi. **10 ballgacha baholanadi**)
 1. 2011-yillarda butun Markaziy Osiyo mamlakatlari qancha paxta tolasini yetishtirgan?
A) 2 million tonna B) 5 million tonna C) 4 million tonna D) 3 million tonna
 2. Xususiy lashtirishning birinchi bosqichi qaysi yillarni o'z ichiga oladi?
A) 1990-1991 B) 1991-1992 C) 1992-1993 D) 1993-1994
 3. Iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslovchi qonun-qoidalar yuridik tashkilotlar va yetuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik

- mutaxassislari tomonidan qo'llab-quvvatlanib tan olindi. Dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarining huquqiy negizini harpo etadigan qancha asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi? A) 150 ga yaqin B) 100 ga yaqin C) 100 dan ortiq D) 150 dan ortiq
4. Iqtisodiy jihatdan erkin bo'lgan mulkdor «o'z boyligini ko'paytirishdan manfaatdor bo'libgina qolmay, balki butun mamlakatni boyitishga ham qodir bo'ladi» - ushbu fikrlar kimga tegishi? A) S.H.M.Mirziyoyev B) U.Chernill C) A.Temur D) I.A.Karimov
5. Jahon iqtisodiy inqirozi qaysi yillarda yuz bergan?
A) 2009-2012 B) 2008-2012 C) 2001-2008 D) 2003-2008
